

Sayyor qabul - muammolar yechimiga xizmat qilmoqda

Sayyor qabul - muammolar yechimiga xizmat qilmoqda

Bugun Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev va sektor rahbarlari shahrimiz fuqarolari uchun "Guliston" mahallasida sayyor qabul o'tkazdi.

Qabulda fuqarolarning yo'llarni ta'mirlash, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, elektr-energiya ta'minotini yaxshilash, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, sog'liqni saqlash kabi masalalarga oid murojaatlari tinglanib, ularni hal etish choralari ko'rildi.

Sayyor qabulda keltirilgan turli muammolarning bir qismi joyida hal etildi. Muddat talab qiladigan murojaatlar bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berilib, ijrosi qat'iy nazoratga olindi.